



HUDUDNING BARQAROR RIVOJLANISHIDA YASHIL IQTISODIYOT
ELEMENTLARIDAN FOYDALANISH HOLATI

Sevara Ismatova Abdushukur qizi

TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari"
ilmiy-tadqiqot markazi doktoranti ORCID: 0009-0007-8174-0498 sevaraismatova99@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi hududning barqaror rivojlanishida yashil iqtisodiyot elementlaridan foydalanish holati tahlil qilinadi. Global isish, iqlim o'zgarishi va resurslarning cheklanganligi sababli yashil iqtisodiyot (green economy) tushunchasi dunyo bo'yicha siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi ham barqaror rivojlanish strategiyalarini shakllantirish va yashil iqtisodiyotga o'tish yo'lida ketmoqda.

Kalit so'zlar: Yashil iqtisodiyot elementlari, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, chiqindilarni qayta ishlash, ekologik transport, yashil investitsiyalar.

THE STATE OF USE OF GREEN ECONOMY ELEMENTS IN THE
SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THE REGION

Sevara Ismatova Abdushukur qizi

PhD student of the Scientific Research Center "Scientific Foundations and Problems of the
Development of the Economy of Uzbekistan" at the Tashkent State Technical University ORCID: 0009-
0007-8174-0498 sevaraismatova99@gmail.com

Abstract: This thesis analyzes the use of green economy elements in the sustainable development of the region. Due to global warming, climate change and resource scarcity, the concept of green economy is gaining political and socio-economic importance worldwide. The Republic of Uzbekistan is also on the path of formulating sustainable development strategies and transitioning to a green economy.

Keywords: Green economy elements, renewable energy sources, waste recycling, ecological transport, green investments.

СОСТОЯНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЭЛЕМЕНТОВ ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКИ В
УСТОЙЧИВОМ РАЗВИТИИ РЕГИОНА

Севара Исмадова Абдушукур кизи

Аспирант Научно-исследовательского центра «Научные основы и проблемы
развития экономики Узбекистана» при Ташкентском государственном
техническом университете ORCID: 0009-0007-8174-0498 sevaraismatova99@gmail.com

Аннотация: В данной диссертации анализируется использование элементов «зелёной» экономики в устойчивом развитии региона. В связи с глобальным



потеплением, изменением климата и дефицитом ресурсов концепция «зелёной» экономики приобретает политическое и социально-экономическое значение во всём мире. Республика Узбекистан также находится на пути разработки стратегий устойчивого развития и перехода к «зелёной» экономике.

Ключевые слова: *Элементы «зелёной» экономики, возобновляемые источники энергии, переработка отходов, экологичный транспорт, «зелёные» инвестиции.*

KIRISH

Jahon yalpi ichki mahsuloti va aholi sonining o'sishi ekologik muammolarni keskinlashtirgani va energiya resurslari cheklanganligi haqida xabardorlikni oshirganligi sababli, ko'plab mamlakatlar barqaror rivojlanishga o'tishni asosiy maqsad qilib oldilar. Yashil iqtisodiyot elementlaridan bo'lgan qayta tiklanuvchi energiya va energetika samaradorligi bo'yicha IRENA ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda O'zbekistonning umumiy qayta tiklanuvchi energiya quvvati 2 668 MW ga yetdi va 2022-yilda bu ko'rsatkich 2 478 MW bo'lgan. 2030-yilgacha qayta tiklanuvchi energiya manbalarini umumiy quvvatning 27 GW gacha yetkazish; va elektr energiyasi ishlab chiqarishda renovativ manbalar ulushini 40% ko'rsatkichga oshirish hozirgi kunda maqsad qilinib kelmoqda. Bu yo'lda energetika samaradorligini oshirish bo'yicha davlat strategiyalari qabul qilindi, masalan, "Green Economy Transition Strategy 2019-2030" doirasida elektr energiyasi iste'moli, issiqlik yo'qotilishi va energiya intensivligi kamaytirilishi belgilandi.

Chiqindilarni qayta ishlash va chiqindilardan energiya olishda 2024-yilda O'zbekiston Qumtepa va boshqa hududlarda chiqindilarni yoqish orqali energiya ishlab chiqarish (waste-to-energy) loyihalarini amalga oshirayotgani rasmiy ravishda e'lon qilindi. So'nggi reza "Uzbekistan announces \$1.3 bln in waste-to-energy projects" loyihalar sanog'i 4,7 million tonna mustahkam chiqindilarni yillik qayta ishlash orqali 2.1 milliard kWh elektr energiyasi olish mo'ljallandi. Buning natijasida tabiiy gazdan foydalanish kamayadi, ifloslanish va karbon chiqindilari kamayishi kutilmoqda.

Ekologik transport va infratuzilmada hozircha transport sektori bo'yicha ma'lumotlar rasmiy statistikada cheklangan bo'lganiga qaramay, hukumat "Yo'l xaritalari" va investitsiya dasturlarida elektromobillar, elektron transport bo'yicha texnologiyalarni keng joriy etish bo'yicha reja ishlab chiqmoqda. Maydonlarda kichik quyosh panellari, quyosh ustunli energiya yechimlari sanoat va maishiy infratuzilmalarda joriy etilmoqda.

Yashil investitsiyalar va davlat siyosati bo'yicha "State Program for Environmental Protection and Green Economy" doirasida hukumat 2025-yili ekologik loyihalarga katta e'tibor qaratgan bo'lib, unda investitsiyalarning kamida 50% qismini "yashil komponentli" loyihalar tashkil etishi rejalashtirilgan. "Yashil Makon" (Green Space) dasturi bo'yicha yillik ko'chat ekish, shaharlarda yashil maydonlarni kengaytirish ishlari amalga oshirilmoqda.

Shunga qaramay bir qancha muammoli vaziyatlar ham yuzaga chiqmoqda, masalan, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining rivojlanishi sekin bo'lib, quyosh va shamol quvvatlarining umumiy energiya balansidagi ulushi hali kam bo'lib qolmoqda. Moliyaviy



resurslar va investitsiyalar yetarli emas, ba'zilar tashqi investorga bog'liq hisoblanadi. Bundan tashqari, chiqindilarni qayta ishlash loyihalarining texnologik va infratuzilma jihatidan murakkabligi, hamda chiqindilar yig'ish, saralash jarayonlarining yaxshilanishiga ehtiyoj oshib bormoqda. Yashil iqtisodiyot komponentlari bo'yicha jamiyat ongini oshirish, malakali kadrlar tayyorlash, qonunchilik va reglamentlarning takomillashtirilishi lozim.

O'zbekiston yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha aniq maqsadlar va strategiyalarni belgilagan va quyida mazkur holat bo'yicha ba'zi takliflar keltirilgan:

- Aholi va kichik korxonalarda quyosh panellari, kichik shamol turbinalari va biogaz yechimlarini rag'batlantirish;
- Chiqindilarni qayta ishlash infratuzilmasini kengaytirish, chiqindilarni saralash va qayta ishlash texnologiyalarini joriy etish;
- Ekologik transport (elektrobusslar, elektr avtomobillar, velosiped, yengil transport yo'llari)ni rivojlantirish uchun imtiyozlar yaratish;
- Moliyaviy mexanizmlarni kuchaytirish, "yashil obligatsiyalar", "carbon credits" savdosi, investitsiyalarni rag'batlantirish;
- Ta'lim va malaka oshirish, yoshlarni yashil iqtisodiyot sohasida kasbga tayyorlash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. IRENA - Renewable Capacity Statistics 2023: Uzbekistan's renewable energy capacity 2,668 MW.
2. Enerdata - Uzbekistan targets 27 GW of renewable capacity and 40% power generation from renewables by 2030.
3. Kun.uz - Uzbekistan expands green economy initiatives to combat climate change.
4. Reuters -Uzbekistan announces waste-to-energy projects, processing 4.7 million tons annually 2.1 billion kWh electricity by 2027.
5. Uzbekistan - Energy Profile, IEA & national strategic documents ("Green Economy Transition Strategy 2019-2030").